VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022- yilning yanvar–mart oylarida 3643 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 80,9 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (jamiga nisbatan 38,3 %), sanoat tarmog‘ida (11,6 %), qurilish tarmog‘ida (8,4 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (6,7 %), axborot va aloqada (6,2 %), tashish va saqlash (4,1 %), sohliqni saqlash va ijtimoiy xizmalar (2,5 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (1,1 %) va boshqa tarmoqlar (21,1 %) tashkil etgan.

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, *foizda*



2022- yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6155,2 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 32,5 %) ni tashkil qiladi;

– investitsiyalar hajmi 4488,5 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 52,6 %) o‘zlashtirildi va 2021 yilning yanvar–martga nisbatan o‘sish sur'ati 101,1 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 4557,8 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 67,9 %) va 2021- yilning yanvar–martga nisbatan o‘sish sur'ati 97,8 % ni tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 10445,1 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 37,3 %) 2021 yilning yanvar– martga nisbatan o‘sish sur'ati 103,8 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 22011,1 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 53,8 %) 2021-yilning yanvar–martga nisbatan o‘sish sur'ati 105,8 % tashkil qildi;

– avtomobil transportida 238889,6 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 78,6%) 2021-yilning yanvar–martga nisbatan o‘sish sur'ati 101,4 % ni tashkil qildi;

– savdo hajmi 7879,9 mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 56,3 %) 2021-yilning yanvar–martga nisbatan o‘sish sur'ati 98,3 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 155,1 mln.AQSh dollarni (umumiy eksport hajmidagi ulushi 17,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi

(*umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda*)

Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (838,2 mlrd.so‘m), Chilonzor (755,0 mlrd. so‘m), Yashnobod (713,6 mlrd. so‘m), Sergeli (595,7 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (592,1 mlrd.so‘m), Shayxontohur (483,9 mlrd. so‘m), Mirobod (406,9 mlrd.so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mirzo Ulug‘bek (397,3 mlrd. so‘m), Uchtepa (381,8 mlrd. so‘m), Yunusobod (380,0 mlrd. so‘m), Bektemir (359,4 mlrd. so‘m) va Yangihayot (251,2 mlrd. so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2022 -yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati



Chakana tovar aylanmasi bo‘yicha eng yuqori hajm Yunusobod (1357,6 mlrd. so‘m), Uchtepa (1142,3 mlrd. so‘m), Bektemir (833,0 mlrd. so‘m), Chilonzor (780,6 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (665,4 mlrd.so‘m), Sergeli (616,4 mlrd. so‘m), Shayxontohur (581,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo‘yicha eng past chakana tovar aylanmasi Mirobod (416,8 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (483,4 mlrd. so‘m) Olmazor (468,2 mlrd. so‘m) Yashnobod (445,4 mlrd. so‘m) va Yangihayot (89,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati



Qurilish sohasi bo‘yicha eng yuqori hajmga ega bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek (740,7 mlrd.so‘m), Yashnobod tumani (587,5 mlrd. so‘m), Yunusobod (648,3 mlrd. so‘m), Yakkasaroy tumani (469,1 mlrd. so‘m), va Mirobod tumani (500,2 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chilonzor tumani (340,7 mlrd.so‘m), Uchtepa (642,0 mlrd. so‘m), Shayxontohur (249,1 mlrd.so‘m), Olmazor (440,1 mlrd. so‘m), Sergeli tumani (198,7 mlrd.so‘m), Bektemir tumani (111,8 mlrd.so‘m) va Yangihayot tumani (96,5 mlrd.so‘m) qurilish sohasida past hajmga ega.

2022-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi ulushi



Investitsiya sohasi bo‘yicha eng yuqori hajmlar Olmazor (2109,0 mlrd.so‘m), Shayxontohur (1010,8 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (533,5 mlrd. so‘m), Yangihayot (526,5 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (516,6 mlrd.so‘m) va Yunusobod (503,0 mlrd. so‘m), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Uchtepa (411,1 mlrd. so‘m), Chilonzor (384,0 mlrd. so‘m), Mirobod (374,8 mlrd. so‘m), Bektemir (358,7 mlrd.so‘m), Yashnobod (244,1 mlrd. so‘m) va Sergeli (243,3 mlrd.so‘m) tumanlarida investitsiya hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Mirzo Ulug‘bek (2076,3 mlrd. so‘m), Yashnabod (1498,7 mlrd.so‘m), Olmazor (1008,2 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (966,8 mlrd.so‘m), Mirobod (958,2 mlrd. so‘m), Shayxontohur (935,1 mlrd. so‘m) Chilonzor (927,4 mlrd. so‘m), Bektemir (904,7 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Uchtepa (826,3 mlrd.so‘m), Yunusobod (787,1 mlrd. so‘m), Yangihayot (728,6 mlrd. so‘m), Sergeli (630,1 mlrd. so‘m) tumanlari hisoblanadi.

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, *foizda*

	Sanoat	*Qurilish*	*Xizmatlar*	*Chakana savdo*
Toshkent shahri	**32,5**	**67,9**	**37,3**	**56,3**
tumanlar:				
Bektemir	31,7	54,8	83,5	86,8
Mirzo Ulug‘bek	33,5	91,5	32,4	58,7
Mirobod	25,8	83,1	31,2	44,6
Olmazor	63,1	90,0	41,8	49,3
Sergeli	52,9	78,4	39,6	54,8
Uchtepa	39,5	49,4	52,9	85,6
Chilonzor	35,1	53,5	31,0	43,2
Shayxontohur	33,7	53,0	29,4	46,0
Yunusobod	48,5	41,4	19,7	60,5
Yakkasaroy	40,1	90,6	37,5	48,6
Yashnobod	14,4	50,7	45,0	47,7
Yangihayot	31,6	94,3	90,1	36,0

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (31,6 %), Olmazor (63,1 %), Chilonzor (35,1 %), Yunusobod (48,5 %), Sergeli (52,9 %), Yakkasaroy (40,1 %), Mirzo Ulug‘bek (33,5 %), Bektemir (31,7 %), Uchtepa (39,5 %), Shayxontohur (33,7 %), Mirobod (25,8 %) va Yashnobod (14,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (94,3 %) Sergeli (78,4 %), Yashnobod (50,7 %), Yakkasaroy (90,6 %), Bektemir (54,8 %), Mirobod (83,1 %), Chilonzor (53,5 %), Olmazor (90,0 %), Mirzo Ulug‘bek (91,5 %), Shayxontoxur (53,0 %), Yunusobod (41,4 %) va Uchtepa (49,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yangihayot (90,1 %) Bektemir (83,5 %), Uchtepa (52,9 %), Yashnobod (45,0 %), Yakkasaroy (37,5 %), Mirzo Ulug‘bek (32,4 %) Chilonzor (31,0 %), Sergeli (39,6 %), Olmazor (41,8 %), Shayxontohur (29,4 %), Mirobod (31,2 %), Yunusobod (19,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Yangihayot (36,0 %), Uchtepa (85,6 %), Bektemir (86,8 %), M. Ulug‘bek (58,7 %), Yakkasaroy (48,6 %), Shayxontoxur (46,0 %), Olmazor (49,3 %), Yashnobod (47,7 %), Chilonzor (43,2 %), Mirobod (44,6 %), va Sergeli (54,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2022-yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 48,5 % ni tashkil qildi (2021 yilning yanvar–mart 51,6 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 3,1 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2022-yil yanvar– mart oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 4012 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 59,1 % qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda sanoat sohasida 30,3 % qulay va 57,9 % esa qoniqarli, savdo sohasida 30,4 % va 61,0 %, xizmatlar sohasida 32,5 % va 58,0 % ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 23,5 %, xizmatlarda 9,5 %, qurilishda 14,6 %, savdoda 8,7 % va sanoatda 11,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash 2022- yil yanvar-mart oylarida, *foizda*



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.